



## QO‘SHMA GAPLAR MURAKKAB SINTAKTIK QURILMA SIFATIDA

**Parizoda Shuhratova, Shahrisabz davlat  
pedagogika instituti**

**O‘zbek tili va adabiyoti  
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, umumiy tilshunoslikda bog‘langan qo‘shma gaplar tadqiq qilingani va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga ona tili darslarida, qo‘shma gaplar mavzusini yanada tushinarliroq tarzda, ma’lumot olishiga yordam berish haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Gap, qo‘shma gap, bog‘langan munosabatlar, semantik, gramatik belgi, bog‘langan qo‘shma gaplar, til, teng komponentli, tobe komponentli, murakkab sintaktik qurilma, lingvistik ta’limot.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается употребление союзов в общем языкознании и дается информация о том, как помочь учащимся общеобразовательных школ узнать больше о теме союзов на уроках родного языка.

**Ключевые слова:** Предложение, сложносочиненное предложение, связные отношения, семантика, грамматический знак, связные предложения, язык, равный компонент, подчинительный компонент, сложное синтаксическое устройство, лингвистическая теория.

**Abstract:** This article examines the use of conjunctions in general linguistics and provides information on how to help students in general secondary schools learn more about the topic of conjunctions in their mother tongue classes. information is provided.

**Key words:** Sentence, compound sentence, connected relations, semantics, grammatical sign, connected clauses, language, equal component, subordinate component, complex syntactic device, linguistic theory.

Bugun o‘zbek tilini yaxlit bir tizim sifatida o‘rganish, uning nutqiy madaniyatini zamon talablari darajasiga ko‘tarish faoliyatimizning tarkibiy qismiga aylandi. Hozirgi kunda qo‘shma gaplar bo‘yicha bir qancha tadqiqodlar, maqolalar qilingan. Bog‘langan qo‘shma gaplar deb o‘zora teng bo‘lovchilar yordamida birikkan, mazmuni va tuzilishiga ko‘ra bir butunlikni tashkil etgan qo‘shma gap turlariga aytiladi.



Keyingi avlod rus tilshunoslari orasida ham «qo'shma gap» tushunchasining chalkash tomonlari haqida fikr bildirilganini kuzatamiz. Masalan, M.V. Lyapon bu xususda quyidagilarni yozadi: «Agar qo'shma gap (murakkab jumla) ikki yoki undan ortiq (kommunikativ salmoqli) tugal fikr anglatayotgan xabarlar birikuvini taqozo etar ekan, uning sathida matn ifodasining jiddiy belgilari kuzatiladi»<sup>8</sup>. Bunday mulohaza Ye.P.Marchenko tomonidan ham ta'kidlanadi<sup>9</sup>. I. F.Vardulning fikriga ko'ra, faqat tobe bog'lanishli sintaktik strukturalarni qo'shma gap deb atash mumkin. Teng bog'lanishli (bog'langan va bog'lovchisiz) qo'shma gap mavjud emas. Bog'lovchili yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar deb nomlanib kelinayotgan sintaktik qurilmalar umuman lingvistik maqomga ega emas. Shunday bo'lgach, ergash gapli qo'shma gap degan tushunchaga ham hojat qolmaydi. Boshqacha aytganda, birgina «qo'shma gap» terminining o'zi yetarlidir<sup>10</sup>. I. F.Vardul bunday xulosaga kelishining asosiy sabablaridan biri odatdagi ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gaplar bir-biriga mutlaqo bog'lanib keladi, ularning birortasini ham alohida qo'llash mumkin emas, degan tushunchaga asoslanishidir. Vardul hatto bosh gapni gap emas, balki murakkab qurilmaning bir parchasi deb biladi. Nazarimizda bu o'rinda Vardulning fikriga qo'shilish qiyin. Masalan, o'zbek tilida ergash gapli qo'shma gap deb atalib kelinayotgan sintaktik strukturalarning barcha turlarida bosh gapni nisbiy mustaqil deb bilish mumkin:

1. Uni xirurgiya bo'limiga joylab endi tinchiganda, yana ikki kishini keltirib qolishdi (O'.Hoshimov. Nur borki, soya bor).
2. Aql va vijdonim qaysi yo'lga boshlasa, o'sha yo'lga yuraman (Oybek. Nur qidirib).
3. Yuragim dukkilashidan to'xtamasa ham, o'zimni yengil sezardim (O'. Usmonov. Nomus).
4. Qizlarki, ko'rib og'zing ochilib qoladi (D.Nuriy. Osmon ustuni). Keltirilgan gaplar an'anaviy qo'shma gaplarning xar xil turlariga misol bo'la oladi. Birinchi misolda payt ergash gapli qo'shma gap berilgan bo'lib, uning bosh gapi ikkinchi komponent sifatida, ikkinchi misolda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilib, uning ham bosh gapi ikkinchi komponent sifatida, uchinchi misolda to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap berilib, uning ham bosh gapi oxirgi komponent tarzida kelmoqda. Mazkur bosh gaplarning har birini nisbiy mustaqil gap sifatida talqin etish mumkin. Hatto oxirgi misolda berilgan aniqlovchi ergash



gapli qo‘shma gapning bir so‘z bilan ifodalanayotgan (qizlarki) bosh gapi ham elliptik holatga tushgan bo‘lsa-da, to‘liq predikativlik belgisiga egadir<sup>11</sup>. Bizningcha, I.F.Vardulning qo‘shma gap va uning turlari haqidagi mulohazalarini ilmiy asosli deb bo‘lmaydi. Masala tavsifiga tizimlilik nuqtai nazaridan yondashilgandagina nafaqat teng komponentli, balki tobe komponentli qo‘shma gap tushunchasidan ham voz kechish mumkin. Zotan, bunday qurilmalar matn maqomiga ega ekanligi shubhasizdir. Biroq matn bir grafema bilan, so‘z bilan, so‘z birikmasi va gap bilan, abzats bilan ham ifodalanishi mumkin. Agar an’anaviy qo‘shma gaplarni mikromatn deb nomlaydigan bo‘lsak, u holda undan kichik matnlar ham mavjud. Shu bois bu o‘rinda «murakkab sintaktik qurilma» terminidan foydalanish maqsadga muvofiq

Bog‘langan qo‘shma gapni boshqa qo‘shma gap konstruksiyalaridan farqlab turuvchi asosi grammatik belgi ularni tashkil etgan qismlarni bir-biriga bog‘lavchi teng bog‘lavchilar va yuklamalardir. Bog‘langan qo‘shma gapni tashkil etgan qismlar orasida ham, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda bo‘lganidek, payt, qiyoslash, sabab– natija, izoxlash va ayirish mazmun munosabatlari ifodalanadi. Bu xil qo‘shma gap konstruksiyasi orasidagi farq faqat bog‘langan qo‘shma gaplarda teng bog‘lovchilarning ishlatilishidagina emas, bu farq yana ayirish mazmun munosabatining keng qo‘llanilishi, sabab va natija mazmun munosabatini ifodalavchi konstruksiyalarning mustaqilligida va har bir simantik munosabat ichida o‘ziga xos mazmun ottenkalarining ifodalanishida ko‘rinadi. Bog‘langan qo‘shma gap qismlari orasida turli mazmun munosabatlarning ifodalanishida shu qismlar tarkibidagi gap bo‘laklarining ma‘nosi va o‘rinlashish ularning semantik va grammatik o‘zaro munosabati, ayrim leksik elementlarning qo‘llanishi gaplarning intonatsiyasi kabi faktorlar asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, qo‘shma gap qismlarida ma‘nosi bir-biriga zid so‘zlar va shakllarning qo‘llanishi qiyoslash-zidlash va ayirish mazmun munosabatini keltirib chiqaradi: Barcha erishgan zafarlari va muvaffaqiyarlari bilan ulug‘lanadigan dunyo fanlari shu bois ham sizning qo‘shiningizga ta‘zim qiladi! Albatta, teng bog‘lovchi bog‘langan qo‘shma gapni tuzuvchi asosiy vosita bo‘lib qoladi. Teng bog‘lovchining har bir turi ma‘lum bir mazmun munosabatlarni ro‘yobga chiqarishda xizmat qiladi (masalan, va bog‘lovchisi biriktiruv munosabatini, lekin bog‘lovchisi qiyoslash munosabatini ifodalagan qo‘shma gaplarda ishlatiladi va boshqalar). Ammo teng bog‘lovchilar biror mazmun munosabati bilan qat‘iy



bog‘lanib qolmaydi (biriktiruv bog‘ovchisi sabab-natija hamda izohlash munosabatlari ifodalangan qo‘shma gaplarda qo‘llanilishi mumkin va boshqalar). Bog‘langan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro aloqasi orqali qo‘yidagi mazmun munosabatlari ifodalanadi:

1. Qiyoslash munosabati 2. Biriktiruv munosabati 3. Ayiruv munosabati 4. Sabab va natija munosabati 5. Izohlash munosabati. 2 Qo‘shma gaplarni tashkil etgan qismlar orasida doima bir xil simantik munosabat ifodalana olmaydi.

**Ayiruv munosabatini ifodalovchi bog‘langan qo‘shma gaplar.** Bog‘langan qo‘shma gaplar ayrim turlarida qismlaridan anglashilgan mazmunvoqea, hodisa, holarlarning biri ro‘y berib, ikkinchisi ro‘y bermeydi yoki ularning har qaysisi ro‘y beradi, ammo ro‘y berish ketma-ket bo‘ladi. Bu xil qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan mazmun odatda, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmaydi, biri ikkinchisini izohlamaydi. Ammo shunga qarama, qo‘shma gap qismlari mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan, yoki bir turdagi tushunchani ifodalaydi. Qo‘shma gap qismlari umumiy bir fikrni, tushunchani, niyatni ifodalash uchun xizmat qiladi, shu bir tushunchaning, niyatning elementlari sanaladi. Bog‘langan qo‘shma gaplardagi bunday simantik aloqa shartli ravishda ayiruv munosabati deb nomlanadi. Ayiruv munosabatini ifodalagan bog‘langan qo‘shma gap qismlari o‘zaro ayiruv bog‘lovchisi va ayrim leksik elementlar (ba‘zan, hali, bir ) yordami bilan bog‘lanadi.

**Ayiruv munosabatini ifodalagan qo‘shma gaplarning mazmuni.** Ayiruv munosabatini ifodalagan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro simantik munosabati uch xil bo‘ladi.

1. Qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-ho‘latlarning biri ro‘y beradi.  
2. Qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-ho‘latlar galma-gal sodir bo‘ladi. 3. Qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan harakat-ho‘latlarning har ikkisi ro‘y beradi. Qo‘shma gap qismlarida ifodalangan harakat-ho‘latning biri ro‘y berish mazmuni ifodalanganda, qo‘shma gap qismlari o‘zaro, yoki, yo bog‘lovchilari bilan birikadi. Bu xil qo‘shma gaplardagi bir qismdan anglashilgan mazmun ikkinchisini inkor etadi: Qo‘shma gap qismlarida anglashilgan harakat-ho‘latning biri ro‘y berishi mumkin ekanligini yanada ta’kidlash uchun yo bog‘lovchisi bilan barobar bo‘lmasa fe‘l shakli qo‘llaniladi:

Balki, hozir Dildorni osayotgandirlar, yo bo‘lmasa uni qiynamoqdalar, yo bo‘lmasa azamat sheriklari zindonga bosqin yasashga majbur bo‘lib, bari qirildimi (Oybek., „Navoiy“, 79 ).



Yoki bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap qismlaridagi mazmun so‘zlovchi uchun aniq ma‘lum bo‘lmaydi, shuning uchun ham ikki xil harakat-holat, taxmini o‘rtaga tashlaydi. Bog‘langan qo‘shma gapdagi bu mazmun qo‘shma gap strukturasiga ham tasir qiladi: ko‘pincha, bir xil bog‘langan qo‘shma gaplar so‘roq gaplardan iborat bo‘ladi; bo‘nday so‘roq gaplardan anglashilgan mazmun bir-biriga qiyoslanadi ham: Ayrim hollarda so‘zlovchining taxmini, gumoni ifodalagan bu turdagi bog‘langan qo‘shma gapning mazmunini izohlash uchun ulardan so‘ng yana bir gap kertiladi: Kolxozga Salima boradimi yoki karim boradimi-bu narsa ma‘lum emas menga. So‘roq gaplardan tarkib topgan bu xil bog‘langan qo‘shma gaplar qo‘shma gapning so‘nggi qismidan anglashilgan mazmunni izohlashi mumkin Bu qo‘shma gapning ikkinchi qismidan anglashilgan holat ( pillaning yaxshi bo‘lganligi )ning izohini qo‘shma gapning birinchi qismi (yo bog‘lovchisi bilan tuzilgan, bog‘langan qo‘shma gap) izohlaydi (pillaning yaxshisi bo‘lganligi ikki xil taxmin ko‘rsatiladi: yoki odamning kelganligi, yoki qurt tutishni sog‘inib qolishgani). Tarkibida qismlaridan anglashilgan harakat-holatning birigina ro‘y berishi mumkin bo‘lgan bog‘langan qo‘shma gaplarning kesimlarida ifodalangan zamon tushunchasida va shu zamon munosabatida ham o‘ziga hoslik bor: bu xil qo‘shma gap qismlarining kesimlari hozirgi va hozirgi-kelasi zamon shaklida bo‘ladi, kesimlarning o‘tgan zamon shaklida qo‘llanilishi kam uchraydi. Buning sababi– so‘zlovchining taxmini, farazi ko‘proq hozirgi yoki hozirgi-kelasi zamonga taalluqli bo‘lgan harakat-holatlarga oid bo‘lishidir. Bog‘langan qo‘shma gap qismlarining kesimlari asosan bir xil shakilda bo‘ladi, voqea-hodisalarning bir xil zamonda ro‘y berishi taxmin etiladi, kesimlaridan anglashilgan harakat-holatning ro‘y berishiga bumoslik bu xil bog‘langan qo‘shma gaplarning o‘ziga xos xususiyatlaridir: Yo podsho biror yerga chiqadi, yoki elchi kelishi kutiladi. Bog‘langan qo‘shma gaplardagi hozirgi zamon tushunchasi ot, sifat, sifatdosh, son, olmosh, ravish kabi so‘zlar bilan ifodalangan ot kesimlar orqali ham anglashiladi: Yoki bog‘lovchisi bilan tuzilgan bog‘langan qo‘shma gap qismlari boshqa ayiruvchi big‘lovchi yordami bilan tuzilgan qo‘shma gapning qismlariga qaraganda, mazmunan, grammatik va intonatsiya jihatdan ancha mustaqildir, bu xil gaplardan biri ro‘y berishi mumkin bo‘lgan alohida harakat-holatlar ifodalanadi, goh kabi bog‘lovchilar yordami bilan tuzilgan qo‘shma gapning har ikki qismida harakat ro‘y bergani uchun, qismlari ifodalangan harakat-holatlar



bir-biriga bog‘liq bo‘ladi, ayrim hollarda biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Yoki bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan qo‘shma gap qismlari intonatsiya jihatdan ham bir qismi alohida ohang bilan aytiladi: hatto ular mustaqil tugallangan intonatsiya bilan talaffuz etilishi mumkin. Ayiruv munosabatini ifodalagan qo‘shma gap qismlaridan anglashilgan voqea, hodisalarning har ikkisi vujudga keladi. Ammo qo‘shma gapning bir qismidan anglashilgan harakat- holat yoki belgi-xususiyat bir vaqtda emas, vaqtda ro‘y beradi. Bunda qo‘shma gap qismlari o‘zaro goh, dam bog‘lovchilari, va bog‘lovchi vazifasiga ba‘zan bir, hali so‘zlari yordami bilan bog‘lanadi:

Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi (Oybek., „Bolalik“, 69). Bog‘langan qo‘shma gapning bu turi qismlari ayrim o‘rinlarda mazmunan ancha mustaqillikka ega bo‘lishi, strukturasi murakkablashishi mumkin. Masalan: Bu xil qo‘shma gapning qismlari alohida tugallangan intonatsiya bilan aytiladi va orada sezilarli pauza beriladi, shuning uchun ham ular orasiga yozuvda nuqta ishorasi qo‘yiladi. Galma-gal ro‘y beruvchi voqea, hodisa yoki belgi-xususiyatni ifodalagan qo‘shma gap qismlarining kesimlari o‘tgan zamon yoki hozirgi kelasi zamon shakli va mazmunida bo‘lishi mumkin. Bu jihatdan yoki bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan konstruksiyalardan farqlanadi (ma‘lumki, yoki bog‘lovchisi yordami bilan tuzilgan konstruksiyalar kesimlarning zamon shakli chegaralangan: kesimlarning o‘tgan zamonda kelishi juda ham kam qo‘llaniladi).

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – Toshkent: Fan, 1976 yil.
2. Rubinchik Yu.A. Grammatika sovremennogo persidskogo literaturnogo yazyka. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2001 yil.
3. Turniyozov B.N. davlatlarning o'z vaqtida tengbek komponentlari tili sintaktik qurilmalar derivatsiyasi. – Samarqand, 2008 yil.
4. Xayrullaev X. Predikativlik hodisalari va aniqlash ob'ektlari. – Samarqand, 2002 yil.
5. Xayrullaev X. Nutq birliklarining pogonali munosabati. – Samarqand, 2008 yil
6. Berezin F.M., Golovin B.N. Obschchee yazykoznanie. - Moskva, 1979 yil.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiyot tili(darslik).-Toshkent: Universitet, 2006.



8. G‘ulomov A., Asqarova M. dunyodagi o‘zbek adabiyoti tili. Sintaksis. – Toshkent : O‘qituvchi, 1987.
9. Qudratov T. Nafasov T. Lingvistik belgi: Sintaktik belgi. – Toshkent : O‘qituvchi, 1981.